

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI

Masharipova Sadoqat Erkinovna

Xiva pedagogika kolleji maktabgacha ta'lism metodikasi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha ta'lism sohasida ommalashib borayotgan ta'limi faoliyatlar innovatsion xarakter kasb etmoqda. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion yangi texnologiya loyihalarini yaratish ta'lism-tarbiya samaradorligini oshirmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida innovatsion ta'lism texnologiyalarini joriy qilish va uning afzalliklari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagog, ta'lism, tarbiya, metod, texnologiya, bog'cha, usul, o'yin, kompetensiya.

Mamlakatimizda ta'lism sohasida olib borilayotgan o'zgarishlarni tahlil qilar ekanmiz, bu islohotlar samarasini zamonaviy innovatsiyalarni amalga tatbiq etish bilan bog'liq degan xulosaga kelishimizga asos bo'ldi. Maktabgacha ta'lism sohasidagi o'zgarishlar, maktabgacha ta'lismning asosiy vazifasi bolalar hayotini rivojlantirish orqali ularni maktabga yanada sifatli va samarali tayyorlash ekanligi ayon bo'ladi hamda ularni shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash usullarining ko'payishi bilan tasdiqlanadi. Shu boisdan ham maktabgacha ta'lismning bugungi holatini ushbu sohaga innovatsiyalarni joriy etishning boshlang'ich nuqtasi sifatida tahlil qilish, shuningdek, islohotlarning eng istiqbolli yo'nalishlarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda maktabgacha ta'lism sohasida o'rtaqa tashlanayotgan savollar va muammolar malakali va asosli javobni talab qiladi, bu faqat zamonaviy ota-onalar, pedagog-tarbiyachilar va maktabgacha ta'lism tashkilotlari rahbarlarining fikrlari, yo'nalishlari va munosabatlarni sotsiologik o'rganish asosidagina yechimini topishi mumkin.

Maktabgacha ta'limga hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lism-tarbiyasiga berilayotgan e'tiborni sotsiologik jihatdan o'rganilishi orqali biz soha rivojini ta'minlovchi mukammal yo'l xaritasini yaratishimiz mumkin bo'ladi.

Maktabgacha ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali mavjud muammolar tizimning imkoniyatlarini hisobga olgan holda pedagogik jihatdan juda ko'p tadqiq etilgan, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lism-tarbiya berishga





zamonaviy yondashuvning istiqbollari ishlab chiqilgan. Endilikda esa buni umumiy nazariy va sotsiologik yondashuvlar asosida bola hayotida mактабгача та'lim tshkilotining roli va vazifalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali mактабгача yoshdagi bolalarning muammolarini pedagogik tushunish, bola shaxsini rivojlanishini psixologik qo'llab-quvvatlash, mактабгача та'limning bola hayotidagi ijtimoiy va shaxsiy yo'nalishi, mактабгача та'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachisi faoliyatining yetakchi turlari, undagi mavjud muammolarni o'rganish bevosita mактабгача та'lim tizimining faoliyati muammolarni hal qilishga yo'l ochadi.

Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda mактабгача yoshdagi bolalarning davr talabiga mos tarzda zamonaviy g'oyalar va tushunchalar, bola shaxsiga yo'naltirilgan, yangi o'quv dasturlariga asoslangan ta'lim talablari, shaxs, faoliyat va ijtimoiy tuzilish nazariyasidan kelib chiqqan holda ish yuritish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazmunan olib qaraganda bolalarning rivojlanish jarayoni biz yuqorida aytib o'tganimiz qadriyatlar, me'yorlar, bilimlar, xulq-atvor shakllari, barchaga ma'lum bir madaniyat qirrqlari sifatida munosabat, sotsializatsiya jarayoni bilan tanishish imkonini beradi. Shu jihatdan olib qaralganda bugungi kunda mактабгача та'lim tizimidagi islohotlarda ham bolaning ijtimoiylashuvi va sifatli ta'lim-tarbiya olishi bosh omil sifatida qaralgan.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an'anaviy ta'lim yo'sini mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi odam biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o'zgarishlardan iborat bo'lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo'yayotgan yoshlar ana shunday o'zgarishlarga ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o'z o'rmini topolmasligi mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida boy tajribalar yig'ilgan. Chunonchi, ishbilarmonlik o'yinlari, kompyuterli o'qitish, individuallashtirilgan o'qitish, insonparvarlik, hamkorlik, shaxsni erkin tarbiyalash va h.k.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida mактабгача та'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Mактабгача та'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inidir. Avvallari bu tizim xalq xo'jaligining turli





sohalarida mexnat qilayotgan ota-onalarning ijtimoiy faoliyati uchun shart-sharoit yaratishgagina xizmat qilgan bo'lsa, endilikda bolalar bog'chalari ish mazmuniga qo'yilgan talablar xam o'zgartirildi. Asosiy vazifalardan biri kichkintoylarni maktab bosqichida o'qishga tayyorlashdir. Bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilariga ta'lif berishda maktablar o'quv dasturlariga yaqinlashtirilgan 12 yo'nalishli yangi dasturlar ishlab chiqilgani, sinovdan o'tkazilib, joriy etishga kirishildi. Bog'chalarda bu dasturlarni ta'lif jarayonida qo'llash orqali ijobiy natijalar qo'lga kiritildi.

Ta'limgagi innovatsiyalar ta'lif sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lif jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lif va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo'lishi mumkin. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lif faoliyati jarayonida ham rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarga ta'lif-tarbiya berishning asosini o'yinli texnologiyalar tashkil qiladi. Bu yoshdagи bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lganligi bois – u ta'lif texnologiyasi sifatida tatbiq etilgan. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faolligi va tasavvuri tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Maktabgacha ta'limgagi innovatsion texnologiyalar o'yinli texnologiyalar bilan bog'lanib ketgan. Ammo ularni bir xil qarash deb bo'lmaydi. Chunki innovatsiyalar turlicha yo'nalishda foydalaniladi. Maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagogi o'z faoliyatini principial amalga oshirish uchun: samarali (mavzuga yo'naltirilgan), tejamkor (shaxsga yo'naltirilgan), hamkorlik texnologiyalariga ega bo'lishi lozim.

Maktabgacha yoshdagи bolalar ko'rgazmali tasavvur orqali anglash davrida bo'lganligi bois, barcha yangi bilimlar ko'rgazmalilikka asoslanadi. Bu yoshdagи bolalar bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar sifatida interfaol metodlardan tarbiyachilar unumli foydalanadilar. Chunki mazkur metodlardan foydalanish orqali har bir bola o'zining individual qobiliyatlarini namoyon eta oladi; mantiqiy o'yinlar o'ynash bolaning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi; atrof-muhit





hodisalari haqida aniq tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi; bolani ham ruhan, ham jismonan rivojlantirishga xizmat qiladi; bolalarni o‘z oldiga maqsad qo‘yib, uni amalga oshirishga o‘rgatadi; qiyin vaziyatlar tug‘ilganda mustaqil ravishda muammoga yechim topishga o‘rgatadi. Shu bilan birgalikda bolalar nutqining ravon bo‘lishida, o‘z fikrini erkin bayon eta olish ko‘nikmasini shakllantirish imkoniyatini yaratiladi.

Interfaol metodlar mazmuniga ko‘ra bolalar faol o‘zaro ta’sir qilish sharoitida o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Birgalidagi faoliyatdan zavq oluvchi bolalar uchun bunday usullar yangi bilimlarni egallashda qiziqarli va tassurotga boy bo‘lishini ta’milaydi. Faqatgina tarbiyachi ushbu usullarni bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari va yosh jihatlariga moslashtirgan holda foydalanishi lozim.

Bolalarning rivojlanishiga qo‘yilgan “Davlat talablari” va “Ilk qadam” davlat dasturida bolaning umumiy va rivojlanish sohasi kompetensiyalarining muhim yo‘nalishlari belgilab berilgan. Unga ko‘ra maktabgacha 6-7 yoshdagi bolaning umumiy kompetensiyalari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatildi:

- Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.
- O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.
- Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan axloq-odob normalari va me’yorlariga riosa qilgan holda o‘zini tutish mahorati.
- Bilish kompetensiyasi – atrof-muhitni ongli ravishda idrok qila olish va bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilishda foydalanish.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni bolalar ta’limiy jarayonida qo‘llashda avvalo yuqoridagi bola kompetensiyalarini shakllantirishning qay birida maqbulligini aniqlash hamda ustuvor jihatlarini hisobga olish kerak. Masalan, mantiqiy o‘yinlar va tajribalar ustida ishlash bolaning bilish jarayonida xizmat qilsa, so‘z o‘yinlari kommunikativlikni oshiradi. Shu bois usullarni saralash va muvofiqlashtirish asosida olib borish zarur.

Bugungi kunga qadar Vatanimizda bolalar bog‘chalarida yuzdan ortiq ta’lim texnologiyalari qo‘llanilmoqda. Ular orasida quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- sog‘liqni saqlash texnologiyalari;
- loyiha faoliyati bilan bog‘liq texnologiyalar;



- loyiha faoliyatida foydalaniladigan texnologiyalar;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- har bir shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar (shaxsga yo'naltirilgan);
- o'yin texnologiyalari deb ataladi.

Mamlakatimizdagи deyarli barcha maktabgacha ta`lim tashkilotlari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, tarbiyachilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Ta`lim jarayoniga yangi texnologiyalarning joriy etilishi, tarbiyachini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, tarbiyachilik faoliyatini yanada serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

Har doim millat taqdiri va ravnaqi ilm ma'rifatni yuksaltirish ishi dastavval maktabgacha ta'lidan boshlanishini anglagan xolda maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash, bola ongida, tafakkurida, xulq-atvorida hayotga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarni tizimli tarzda kamol toptirishdan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bolalarimizga shunday ta'lim-tarbiya berishimiz lozimki, ular o'z meniga ega bo'lsin, jamiyatga tez moslasha olsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari T., 2018yil.
2. R.G.Qodirov (2005). Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.
3. F.Qodirova va boshq. Maktabgacha pedagogika. T., 2019-yil
4. I.V.Grosheva, L.G.Evstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixanova, S.B.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent 2018
5. G.Toxtasinova, T.I. Ormonova (2005). Bolalar bog'chasida intellektual psixologik oyinlar.
6. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari Majmuasi. T., 2010.
7. G.M.Nazirova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd)dissertatsiya. Toshkent 2019yil.

